

INSONPARVARLIK TAMOYILLARINING PEDAGOGIK MOHIYATI VA ULARNING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti 1-bosqich magistranti
Qosimov Azimjon

Insonparvarlik tamoyillari pedagogik nazariya va amaliyotning markaziy kontsepsiyasini tashkil etadi va shaxsning qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida tan oladi. Ushbu tamoyillar ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan holda tashkil etish, har bir o'quvchining individual qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish, shuningdek, ta'lim olishda tenglik va adolatni ta'minlashni nazarda tutadi. Insonparvarlik tamoyillari asosida pedagogik jarayon o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida hurmat, ishonch va bag'rikenglikka asoslangan hamkorlikni shakllantiradi.⁵⁰

Shuningdek, insonparvarlik tamoyillari shaxsning mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga, mas'uliyat hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu tamoyillar ayniqsa inklyuziv ta'lim tizimida ahamiyatli bo'lib, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muhitiga integratsiya qilish, ularni ijtimoiy-adaptiv va pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali shaxs sifatida rivojlantirish imkonini beradi.⁵¹

Insonparvarlik tamoyillari pedagogik faoliyatda nafaqat ta'lim mazmuni va metodlariga, balki ta'lim muhitining tashkiliy va axloqiy asoslariga ham ta'sir ko'rsatadi. Ular ta'lim muassasalarida qulay va xavfsiz muhit yaratish, barcha ishtirokchilar uchun teng va inklyuziv sharoitlarni ta'minlashni amalga oshiradi.⁵² Shu jihatdan, insonparvarlik tamoyillari zamonaviy pedagogik amaliyot va ta'lim tizimini insonparvarlashtirishning nazariy va amaliy poydevorini tashkil etadi.

Insonparvarlik – insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi to'g'risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Unga ko'ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-u saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlar, mamlakat kishilari haqida g'amxo'rlik qilish.

Tarbiyaning insonparvarlik g'oyasi muhim tushuncha bo'lib unda inson yoki shaxsning taqdiri yotadi. Insonparvarlik g'oyasi har bir xalqning azaliy qadriyati hisoblanadi, unimiy qadriyat hisoblanadi. Masalan ikkinchi jahon urishi yillarda o'zbek xalqining turli millat xalqiga insonparvarligi, bolajonligi, xalqparvarligi hamda mehr oqibatligi misoldir. Tarbiyaning markazida shaxs turar ekan har bir ison komil inson bo'lishga intilishi kerak, shundagina biz kutgan natijaga erishimiz mumkin.

Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va b. asarlarida Insonparvarlik, inson erkinligi, uning qadr-qimmati g'oyalari olg'a surildi. Forobiy insonlarning inoq va do'st yashashi mamlakatda xalqlar uchun katta foyda keltirishini isbotlashga intilgan va

⁵⁰ Asmolov, A. G. *Pedagogik psixologiya asoslari*. – Moskva: Akademiya, 2009.

⁵¹ UNESCO. *The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education*. – Paris: UNESCO, 1994.

⁵² Jo'rayev, R. H., Muslimov, N. A. *Pedagogik jarayonni insonparvarlashtirish asoslari*. – Toshkent: Fan, 2015.

tin-chlikni qat'iy quvvatlab, butun faoliyatini inson xizmatiga qaratgan. Navoiy inson taqdiri, xalq manfaa-ti, mamlakat haqida g'amxo'rlikni asosiy masala qilib qo'ygan. Dunyoda eng qimmatli narsa insondir, degan fikrni olg'a surgan. Uning fikricha, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Jahon dinlari, jumladan islom dinida ham Insonparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topgan. Unda faqir, kambag'al, musofir, muhtoj kishilarga yordam berishga, sahovatli va insofli bo'lishga da'vat qilinadi.

Ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri — har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda sifatli va teng huquqli ta'lim olishini ta'minlashdir. Inklyuziv ta'lim ushbu tamoyillarga asoslangan bo'lib, uni faqat imkoniyati cheklangan bolalar uchun emas, balki butun ta'lim tizimini insonparvarlik asosida yangilash vositasi sifatida talqin etish zarur. Bu yondashuv bolani tizimga moslashtirishni emas, balki tizimni bolaning ehtiyojlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Shu sababli, inklyuziv ta'lim integratsiya va meynstriming kabi avvalgi yondashuvlardan tubdan farq qiladi va uni pedagogik, huquqiy hamda ijtimoiy jihatdan chuqur o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik nazariya va amaliy tadqiqotlarda odatiy rivojlangan bolalar hamda sog'lig'ida cheklovlar bo'lgan bolalar birgalikda ta'lim olib, ijtimoiylashadigan pedagogik jarayonni tavsiflash va mazmunan tahlil etish maqsadida integratsiya, meynstriming va inklyuziya kabi ilmiy atamalar qo'llaniladi. Ushbu tushunchalar nafaqat qo'shma tarbiyaviy-ta'limiy makonning turli shakllarini, balki har bir bolaning individual rivojlanish trayektoriyasini qo'llab-quvvatlash va ta'limga teng huquqli kirishni ta'minlovchi pedagogik strategiyalarning metodologik yetuklik darajasi hamda falsafiy-gumanistik yo'nalishini ham aks ettiradi.

“Integratsiya” atamasi lotincha integrare so'zidan olingan bo'lib, “to'ldirmoq”, “butunlikni tiklamoq”, “qo'shimcha kiritmoq” degan ma'nolarni anglatadi. Ilmiy-pedagogik nutqda ushbu tushuncha XX asrda faol qo'llanila boshlagan bo'lib, dastlab ijtimoiy integratsiya kontekstida, ya'ni irqiy va etnik ozchilik vakillarini ta'lim va madaniy muhitga moslashtirish hamda ularni ushbu muhitga qo'shish muammolari bilan bog'liq holda, asosan AQShda qo'llanilgan. 1960-yillardan boshlab “integratsiya” tushunchasi o'z mazmunini o'zgartirib, Yevropa ilmiy-metodologik leksikonida mustahkam o'rin egalladi va torroq, ixtisoslashtirilgan ma'noda - sog'lig'ida cheklovlar bo'lgan shaxslarni umumiy ta'lim makoniga qo'shish jarayonlarini hamda ularni umumta'lim maktablarida ijtimoiypsixologik moslashtirishni ifodalovchi atama sifatida ishlatila boshlandi. XXI asr boshiga kelib, xorijiy mamlakatlarda integratsiya tushunchasi jamiyatda nogironligi bor shaxslarning barcha sohalarda teng ishtirok etishini anglatadi va bu holat rivojlangan davlatlar qonunchiligida mustahkamlab qo'yilgan. Xorijiy pedagogikada integratsiya turli imkoniyatlarga ega bolalarning birgalikda ta'lim olishi va hayot kechirishi jarayoni sifatida talqin etiladi hamda bu jarayon iqtisodiy, tashkiliy va metodik shart-sharoitlar bilan qo'llab-quvvatlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Nomanova M.A.** Ta'lim jarayonida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o'qitishni tashkil etish masalalari // *Zamonaviy ta'lim* jurnali. – Toshkent, 2020. – №4. – B. 62-66.
2. **Turabova M.** O'qituvchilik kasbining insonparvarlik yo'nalishi // *Ilm-fan va ta'lim* ilmiy-amaliy jurnali. – Samarqand, 2021. – №2. – B. 73-77.
3. **Ibragimova D.D., Azimova D.Sh.** Inklyuziv ta'limda insonparvarlik va individual yondashuv tamoyillari // *Ta'lim muammolari* jurnali. – Toshkent, 2022. – №1. – B. 38-42.
4. **Ergashova N.Q.** Inklyuziv ta'limning nazariy-metodologik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. **Pedagogik mahorat:** Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.